DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.18048213

KASABA UYUSHMALAR TARIXI-KECHA VA BUGUN

Mirzayev B. Yu

Ibragimov A.H

Kimsanboyeva Z. A

A.Xudoynazorova

IIV 1-sonli Toshkent akademik litseyi tarix fani o‘qituvchilari

zuxraxonkimsanboyeva@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ishchi mehnatkashlarni jinsi, diniy e’tiqodi, irqiy va milliy mansubligidan qat’iy nazar ishlab chiqarish sohalarida ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari va o‘z a’zolari manfaatlarini himoya qilish maqsadida birlashtiruvchi ommaviy jamoat tashkilotlari kiradi, XVIII-asr oxirida G‘arbiy Yevropa mamlakati va AQShda o‘zaro yordam jamiyatlari asosida paydo bo‘ldi.

Kalit so‘zlar: *kasba. Uyushma, federatsiya, ishchi, xodim, saylov, konferensiya.*

ПРОФСОЮЗИ-ВЧЕРА И СЕГОДНИЯ

АННОТАЦИЯ

Это массовые общественные организации, объединяющие трудящихся производственных отраслей независимо от пола, религиозных убеждений, расы и национальности для защиты социально-экономических прав и интересов своих членов. Они возникли в странах Западной Европы и США в конце XVIII века на основе обществ взаимопомощи.

Ключевые слова: *профессия. Ассоциация, федерация, рабочий, служащий, выборы, конференция.*

TRADE UNIONS-YESTERDAY AND TODAY

ANNATATION

Mass public organizations that unite working workers in the sphere of production, regardless of gender, religious beliefs, racial and national affiliation, with the aim of protecting socio-economic rights and the interests of their members, appeared at the end of the XVIII century on the basis of mutual assistance societies in the Western European country and the United States.

Keywords: *kasaba. Association, Federation, worker, employee, election, conference.*

KIRISH

O‘zbekiston kasaba uyushmalarining tarixi 1905-yildan boshlangani biz tarixchilar uchun ma’lum bo‘lib, shu yil kuzda Butunrossiya temiryo‘l uyushmasining Turkiston bo‘limi tashkil etilib, 1906-yil boshiga kelib 8000 a’zosi bo‘lgan. Kasaba uyushmasi xodimlarining mehnat sharoiti, ish haqi, turmushi, madaniyat sohasidagi manfaatlarini himoya qilishga da’vat etiladi. Jahonda kasaba uyushmasi federatsiyasi bo‘lib, (1945-yil Parijda tuzilgan) 80 dan ortiq mamlakat milliy kasaba uyushma markazlarini birlashtiradi, kasaba uyushmasining soni XX-asrning oxiriga kelib 213 mln. kishiga yetgan. Xalqaro miqyosda erkin kasaba uyushmasi Jahon mehnat konfederatsiyasi 1920-xalqaro xristian kasaba uyushmasi konfederatsiyasi nomi bilan tuziladi, a’zosi 14mln bo‘lgan, uning qarorgohi Bryusselda). 1924-yilga kelib ilgarigi Butunittifoq kasaba uyushmalari Markaziy kengashi (VSSPS) tarkibiga kirgan Turkiston ASSR kasaba uyushma tashkilotlari, bevosita Profinternatsional tarkibiga kirgan Buxoro va Xorazm xalq respublikalari kasaba uyushmalari faoliyat ko‘rsatar edi. 1925-yilda Buxoro va Xorazm respublikalari kasaba uyushmalari ham

Butunittifoq kasaba uyushmalari Markaziy Kengashi (VSSPS) tarkibiga kiritilgan. 1925-yil 21- martda O‘zbekiston kasaba uyushmalarining birinchi Ta’sis qurultoyida 53 kishi bo‘lib, Kengash va 5 kishidan iborat taftish komissiyasi saylangan. O‘zbekiston kasaba uyushmalari Kengashi 1991-yilgacha, ya’ni O‘zbekiston mustaqillikka erishguncha Butunittifoq kasaba uyushmalari Markaziy Kengashi tarkibida bo‘lgan.O‘zbekiston Respublikasida kasaba uyushmalarining huquqiy maqomi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mehnat kodeksi, “Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida“gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (1992-yil 2-iyul) bilan belgilanadi. Kasaba uyushmalariga mehnatga masalalarni hal qilish sohasida huquqlar belgilangan. Kasaba uyushmasining tuzilishi federalizmga asoslangan bo‘lib, barcha organlar kasaba uyushmalari a’zolari tomonidan saylangan vakillarning yig‘ilishlari, konferensiyalari va qurultoylarida saylanadi va ular oldida hisobot berib boradi. Tashkilot ishlab chiqarish, tarmoq va hududiy prinsiplar asosida tashkil etilib boriladi, kasaba uyushmasining asosi-boshlang‘ich tashkilot bo‘lib, kasaba uyushmasi a’zolarining umumiy yig‘ilishi uning oliy organidir. Iqtisodiy islohotlar va bozor munosabatlari asoslangan davrda kasaba uyushmasining mustahkamlash, kuch va mablag‘larni birlashtirishga nisbatan ehtiyoj kuchayadi. 1990-yil 12-sentyabrdan buyon kasaba uyushmalarining bosh vazifasi a’zolarning mehnat, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy, intellektual huquq va manfaatlarini muhofaza qilish sifatida harakat birligini amalga oshirib kelmoqda. O‘zbekiston kasaba uyushmalari kengashi (Uzsovprof) 1925-yildan faoliyat ko‘rsata boshlagan edi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng respublikada kasaba uyushmalari tuzilib, ular o‘z ustavlarini qabul qildi va Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tkazildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. O‘zbekiston kasaba uyushmalari quyidagilari:

-Madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi;

-Metallurgiya va mashinasozlik sanoati xodimlari kasaba uyushmasi;

-Matlubot kooperatsiyasi, savdo xodimlari va tadbirkorlar kasaba uyushmasi;

-Sog‘liqni saqlash xodimlari kasaba uyushmasi;

-Ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi;

-Qurilish va qurilish ashyolari sanoati xodimlari kasaba uyushmasi;

-Temiryo‘lchilar va transport quruvchilari kasaba uyushmasi.

NATIJA. O‘zbekiston kasaba uyushmalari tizimini boshlang‘ich kasaba uyushma tashkilotlari, kasaba uyushmalarining tuman, shahar, viloyat, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri kengashlari va boshqalar tashkil etadi. Federatsiya kengashi O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasining qurultoylar oralig‘idagi rahbar organidir. U 5 yil muddatga saylanadi va har bir a’zo tashkilotdan to‘g‘ridan to‘g‘ri miqdorda (2ta) vakil yuborish yo‘li bilan shakllantiriladi. Federatsiya kengashiga vakillar federatsiya a’zolari bo‘lgan tashkilotlarning qurultoylari, konferensiyalari va majlislarida saylanadi. Federatsiya kengashi tarkibiga qurultoyda saylangan a’zolar, federatsiya raisi, uning kengash bo‘yicha o‘rinbosarlari, federatsiya faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi komissiyalar raislari kiradi. Federatsiya raisi ayni vaqtda O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi, Rayosat va Ijroiya qo‘mita raisi ham hisoblanadi.

XULOSA. 2017-yil Prezidentimiz farmoni bilan tashkil etilgan Ichki Ishlar Vazirligi 1-sonli Toshkent akademik litseyida mehnat jamoasini tashabbusi va qarori bilan kasaba uyushmasi faoliyati ham shu yildan boshlanadi. Mening faoliyatim shu litseyda 2023-yil avgust oyidan olib bormoqdaman, kasaba uyushmasi raisining ketishi munosabati bilan mehnat jamoasining konferensiyasida B.Yu. Mirzayev yangi rais sifatida saylandi. Kasba uyushmasi qo‘mitasining Bayonnoma №4, 2024-yil 13.08. O‘RQ №942 sonli qarori asosida kasaba uyushmasi raisi 5-yil muddatga muqobillik asosida salinity belgilab qo‘yildi.2025-yil 7-aprelda Hisobot saylovi bo‘lib o‘tdi.Litseyning 67 nafar xodimidan 60 nafari ishtirok etdi. Yangi rais tayinlash masalasida jamoa orasidan 3kishi nomzod sifatida ko‘rsatildi. Ular:

1. B.Yu.Mirzayev- tarix fani o‘qituvchisi, 30ta ovoz
2. S.T.Suyarova- rustili va adabiyoti fani o‘qituvchisi, 25ta ovoz

3. Z.F.Fayziyev- ombor mudiri, 5ta ovoz berildi. Umumiy ovozga ko‘ra B.Yu.Mirzayev eng ko‘p ovoz bilan kasaba uyushmasining raisi etib belgilandi, kotibi-N.Mirzabekova

A’zolari: Ibragimov A.H., Li.Y.Mixaylovich, R.Yu. Badalboyeva kabi ustozlar tayinlandi. Litseyimizning ushbu B.Yu.Mirzayev rahbarligidagi kasaba uyushmasi faoliyatni jonkuyar a’zolariga mehnat jamoasi manfaatlarini himoya qilishlarida ulkan zafarlar tilab qolamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. LEX.UZ https://lex.uz 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son

2. A.To‘xtasinov Kasaba uyushmalarining jamiyat hayotida tutgan o‘rni Uzbek Scholar Journal 30-son 07.2024 [2, b 9]

3.O‘zbekiston Respublikasining “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019. 6.12